



**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

**ANALYSIS OF MORAL AND ETHICAL VIEWS IN YUSUF KHAJIB'S  
QUTADGU BILIG**

**Feruza Abdunazarovna Abdujabbarova**

Uzbekistan Oriental University

PhD in Philological Sciences, Associate Professor

[feruzaabdujabbarova@yandex.com](mailto:feruzaabdujabbarova@yandex.com)

<https://orcid.org/0000-0002-9348-8484>

**Sherjonova Gulzebo Farxod qizi**

Oriental University

Undergraduate Student (4th year),

Department of Pedagogy and Psychology

[Sherjonovagulzebo4140@gmail.com](mailto:Sherjonovagulzebo4140@gmail.com)

**Abstract.** This article examines the spiritual and moral ideas presented in Yusuf Khas Hajib's work "Qutadgu Bilig". The study focuses on issues of human perfection, the role of knowledge and intellect in social life, principles of just governance, and moral and ethical values. Through the analysis of symbolic characters such as Kuntugdi, Aytoldi, Ogdulmish, and Ozgurmish, the philosophical and pedagogical meanings of justice, statehood, reason, and moderation are revealed. The article substantiates the significance of "Qutadgu Bilig" as an important didactic and moral source in the history of pedagogical thought.

**Keywords:** Yusuf Khas Hajib, Qutadgu Bilig, spiritual and moral ideas, knowledge and intellect, justice, pedagogical concepts.

**YUSUF XOS HOJIBNING "QUTADGU BILIG" ASARIDA MA'NAVIY  
AXLOQIY QARASHLAR TAHLILI**

**Abdujabbarova Feruza Abdunazarovna**

Oriental Univeriseti

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

[feruzaabdujabbarova@yandex.com](mailto:feruzaabdujabbarova@yandex.com)

<https://orcid.org/0000-0002-9348-8484>

**Sherjonova Gulzebo Farxod qizi**

Oriental Univeriseti

Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi

4-kurs talabasi

[Sherjonovagulzebo4140@gmail.com](mailto:Sherjonovagulzebo4140@gmail.com)





АНАЛИЗ ПРАВСТВЕННО-ЭТИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ  
ЮСУФА ХОС ХОДЖИБА «КУТАДГУ БИЛИГ»

Абдужаббарова Феруза Абдуназаровна  
Университет Oriental

Кандидат филологических наук, доцент  
[feruzaabdujabbarova@yandex.com](mailto:feruzaabdujabbarova@yandex.com)  
<https://orcid.org/0000-0002-9348-8484>

Шержонова Гульзебо Фарход кизи  
Университет Oriental

Студентка бакалавриата (4 курс)  
Кафедра педагогики и психологии  
[sherjonovagulzebo4140@gmail.com](mailto:sherjonovagulzebo4140@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida ilgari surilgan ma’naviy-axloqiy qarashlar tahlil qilinadi. Asarda inson kamoloti, ilm va zakovatning jamiyat hayotidagi o‘rni, adolatli boshqaruv, axloqiy me’yorlar va ijtimoiy burch masalalari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida asardagi ramziy obrazlar — Kuntug‘di, Oyto‘ldi, O‘gdulmish va O‘zg‘urmish timsolida adolat, davlat, aql va qanoat tushunchalarining pedagogik-falsafiy mazmuni ochib beriladi. “Qutadg‘u bilig” ta’limiy-axloqiy asar sifatida shaxs tarbiyasi, jamiyat boshqaruvi va ma’naviy yetuklik masalalarida muhim manba ekani asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Yusuf Xos Hojib, Qutadg‘u bilig, ma’naviy-axloqiy qarashlar, ilm va zakovat, adolat, pedagogik g‘oyalar.

**Аннотация**

В статье анализируются духовно-нравственные взгляды, отражённые в произведении Юсуфа Хас Хаджиба «Кутадгу билиг». Особое внимание уделяется вопросам формирования личности, роли знания и разума в общественной жизни, принципам справедливого управления и морально-этическим нормам. На основе анализа символических образов Кунтугды, Айтолды, Огдулмышы и Озгурмышы раскрывается философско-педагогическое содержание понятий справедливости, государства, разума и умеренности. Обосновывается значение «Кутадгу билиг» как важного дидактико-нравственного источника в истории педагогической мысли.

**Ключевые слова:** Юсуф Хас Хаджиб, Кутадгу билиг, духовно-нравственные идеи, знание и разум, справедливость, педагогические взгляды.

“Qutadg‘u bilig” asari ta’limiy axloqiy asar sifatida pedagogika tarixida ham yuqori o‘rinda ekanligi ma’lum . Chunki bu asarda inson kamoloti markaziy masala hisoblanadi. Mazkur asarda insonning jamiyat va hayotda tutgan o‘rni, burch va vazifalari haqidagi muammolar o‘ziga xos tarzda bayon etiladi.

Көрү бэрсэ барча эрүр бу кэз-өк

Укушлүг билиглиг көр аслы кэз-өк[1]





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

“Boqib ko‘rilsa, bu barchasi durust,

Uquv - idrokli, bilimning asli yaxshidir, ko‘r” (204).

Yusuf Xos Hojib o‘z asarida kishilik jamiyatini tuzilishida, uning boshqaruvida har bir insonning o‘z o‘rni mavjudligini ta’kidlab ko‘rsatadi. Mutafakkir asarning an’anaviy boshlanmasidan oldin insonning haqiqiy baxti bilimda ekanligini bayon etadi.

Yana ilm-zakovatning ahamiyati haqida qator boblarda fikr yuritish bilan birga, alohida boblar ham ajratadi. Olim faqat ilm- ma’rifatning ahamiyatini ko‘rsatibgina qolmaydi, u bilim va zakovatning amaldagi o‘rnini ham ko‘rsatadi .

Билигсиз қарағу түрүр бэлгүлүг

Э көзсүз қарағу билиг ал үлүг [1]

“Bilimsiz muayyan ko‘rdir,

Ey nobiyno, ko‘r, bilimdan ulush ol” (268).

Muallif bilimni buyuk, uquvni ulug‘ deb ta’riflaydi. Chunki, zakovatli inson ulug‘ bo‘ladi, bilimli kishi buyuk bo‘ladi deb, ilmi kishilarni asl toifadan sanaydi. Olim ezgu ishlarning barchasi ilm va idrok tufayli amalga oshirishli va hayotga tatbiq etilishi muhimligini qayta-qayta ta’kidlaydi.

O’sha davrdayoq olim, “Bilim” hatto osmon sari yo‘l ochur [1] deb bashorat qilgan.

Yusuf Xos Hojib odam paydo bo‘libdiki, faqat bilimli, aql zakovatli kishilarning ezgu savobli ishlar qilishi, haqqoniy odil, adolatli siyosat yurgazishi mudom ta’kidlagan[3]. Ilk ibtidoiy jamoa tuzumidanoq insonga bilish jarayonida yuksaladigan aql, ong, idrok, uquv-zakovat berilganligi, u asta-sekin rivojlanib kelganligi, aql va zakovati tufayli kishilar razolatdan poklanganligini uqtiradi. Hatto hukmdorlar ham yurtni, davlatni, aql-ilm, zakovat bilan idora etsa, el yurt farovon bo‘ladi, to‘q va tinch hayot kechiradi degan fikrni ilgari suradi.

Olim kuch va qurolni ikkinchi o‘ringa qo‘yadi.

Asarda to‘rtta yetakchi qahramon: Kuntug‘di, Oyto‘ldi, O‘gdulmush, O‘zg‘urmishdir. Ularning har biri ramziy tarzda adolat, davlat, aql va qanoatni ifodalaydi. Ayni paytda asarda ular muayyan lavozim egalari sifatida ko‘rinadi.

Bunda Kuntug‘di- adolat timsoli bo‘lib, xon o‘rnida.

Oyto‘ldi (To‘lin oy)- davlat timsoli bo‘lib, vazir o‘rnida.

O‘gdulmish- (aqli raso) aql timsoli bo‘lib vazirning o‘g‘li misolida.

O‘zg‘urmish (uyg‘ongan)- vazirning qarindoshi bo‘lib, qanoat timsoli.

Asar davomida mana shu qahramonlar o‘rtasida savol-javob, munozara kechadi. Ularning suhbatlari asnosida muallif o‘zining ilg‘or falsafiy qarashlarini, odob- axloq me’yorlarini jamiyatning turli tabaqalariga oid burch va farzlarni sanab o‘tadi, ijtimoiy hayotning hamma tomonlari haqida fikr yuritadi.

Yusuf Xos Hojib tasvirida Kuntug‘di “qilmishlari to‘g‘ri”, “fe’li tabiati rost, tili chin, yetuk, ko‘zi va ko‘ngli to‘q” ma’nalari bor.

Бу Күнтуғды эрди аты бэлгүлүг

Ажунда чавықмыш қуты бэлгүлүг [1]

“Bu (beg) Kuntug‘di edi, oti taniqlik edi,





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

Olamda dong taratgan va baxtu davlati barqaror edi” (399).

Bilimli zakovatli, hushyor, yomonlarga misli bir olov edi.

Билиглиг билигсиз чығай бар йа бай

Укушлуғ укушсуз утун бар гадай [1]

“Bilimli, bilimsiz qashshoq va boy bor,

Uquvli, uquvsiz, nochor va gadoy bor” (1889).

Kuntug‘diga adolat ramzining berilishi tasodifiy emas, adib bu bilan davlat tepasiga adolat, ya’ni adolatli hukumdor va adolatli qonun qoidalar turishi kerak degan aqidani bayon etadi.

Көзи тоқ кэрэк ҳам өзи умдусуз

Бағырсақ кэрэк чың өзи қолтғусуз[1]

“O‘zi ko‘zi to‘q ham tamasiz (bo‘lishi) kerak,

O‘zi sadoqatli, samimiy, tilamaydigan (bo‘lish) kerak” (2681).

Oyto‘ldi davlatni tutib turib, yo‘l-yo‘lakay yo‘riqlarni sanaydi, bular: ko‘ngil muloyimligi, til va so‘z yumshoqligi, ehtiyotkorlik, takabburlikdan yiroqlik, yovuz va yaramas ishlardan uzoqlik, har bir ishda me‘yorga rioya qilish, kattalarni hurmatini joyiga qo‘yish, kichiklarni mehrini qadrlash kabilarni aytib o‘tadi.

Йўзи көрклүг эрди көрүб көз қамар

Сөзи йумшақ эрди тили түз тамар[1]

“Юзи (шу даражада) кўркли эди(ки), кўриб кўз қамашарди

Сўз(лар)и юмшоқ эди, тилидан ҳақиқат ёғарди” (453).

Oyto‘ldining o‘zi bu qoidalarga to‘la rioya qiladi. Shuning uchun Kuntug‘di uning hurmatini joyiga qo‘yadi.

O‘gdulmish asardagi eng faol qahramon. O‘gdulmish so‘zinig ma‘nosi “o‘g”[4] bilan bog‘liq. U “aql-idrok” ma‘nosiga ega. O‘gdulmish aql bilan ziynatlangan demakdir. Uning asarda vazirning o‘g‘li darajasidan vazir o‘rniga ko‘tariishi bejiz emas.

Аты эрди Өгдүлмиш аслы арығ,

Сэвүг савчы ызты бағырсақ изи, [1]

Бозунда талусы кишидә кәзи

“Mehribon egam sevikli rasul yubordi,

(U) xalq orasida sarasi (va) kishilar orasida yaxshisi edi” (33).

Эзи йақшы айтмыш көр өзрүм талу [1]

“Sara, tanlangan (kishi) juda – juda yaxshi aytibdi, ko‘r, (5975).

Эки түрлүг-ул көр бу аслы киши

Бири бэг бири билгә йаңлуқ башы[1]

“Asl kishi(lar) ikki turlidir, ko‘rgin,

Biri – beg, biri – dono, kishilar boshi” (262).

Asar qahramonlaridan yana biri O‘zg‘urmishdir. Buning ma‘nosi “hushyorlik qiluvchi”, “sergaklantiruvchi”[3], degani. Boshqalardan o‘zib ketuvchi degan ma‘nosi ham bor.





# JOURNAL OF SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES VOLUME-1, ISSUE-1, 2026

Uning zohid qiyofasida ko‘rinishida ham shu ma’noga ishora mavjud. U behuda ishlar bilan ovunib qolishdan ogohlantiradi. Mudrab borayotgan tuyg‘ularni sergaklantiradi.

Төрүтти апа оғланын бир байат,  
Улуғ бар кичиг бар эсиз эдгү ат [1]

“Odam bolasini yolg‘iz xudo yaratdi,

Ular orasida ulug‘i bor, kichigi bor, yomon va yaxshi nomlar bor” ( 1888).

Dunyoda faqat davlat yoki aql bilan bitirib bo‘lmaydigan ishlar borligidan ogohlantiradi, inson ko‘nglida mavjud nozik tuyg‘ular mavjlanib turishidan xabar beradi.

Нэлүг қозтум эрки бу эзгү ишиг

Нэлүг сөктүм эрки бу йазуқсуз кишиг [1]

“Nima uchun bu xayrli ishni qo‘ygan ekanman?

Gunohsiz kishilarni nima uchun so‘kkan ekanman?”(1116).

“Qutadg‘u bilig” ta‘lim va tarbiya ma‘naviy kamolatining yo‘l-yo‘riqlari, usullari, chora- tadbirlarini o‘zida mujassam etgan, axloq va odobga doir darsliklardir.

Бош азад киши барча эзгү қулы

Буларқа ача бэргү эзгү йолы [1]

“Erkin – ozod kishi barchasi – yaxshilik quli,

Bularga ezgulik yo‘lini ocha berish kerak” (2951).

Ushbu asarda mutafakkir o‘zining axloqiy-siyosiy va pedagogik fikrlarini bayon qilgan.

Йарашур улуғқа кичиг хурматы

Улуғ ма кичигкә қылуր-оқ өрү [1]

“Uluqqa kichik hurmati (juda) yarashadi,

Ulug‘ ham (uni) ko‘rub kichkinaga (hurmat) ko‘rsatadi” (4051).

Xulosa qilib aytganda, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari turkiy xalqlar ma‘naviy tafakkuri va pedagogik qarashlarining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Asarda inson kamoloti, ilm va zakovatning jamiyat hayotidagi hal qiluvchi o‘rni, adolatli boshqaruv hamda axloqiy me‘yorlarga rioya etish masalalari chuqur falsafiy-pedagogik asosda yoritilgan[3]. Muallif bilim va aql-idrokni shaxs va jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin qiladi.

“Qutadg‘u bilig” nafaqat siyosiy-falsafiy, balki ta‘limiy-axloqiy asar bo‘lib, unda shaxs tarbiyasi, adolat, sadoqat, qanoat va hurmat kabi umuminsoniy qadriyatlar targ‘ib etiladi[7]. Ushbu g‘oyalar bugungi kunda ham yosh avlodni ma‘naviy yetuk va komil inson etib tarbiyalashda dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shu bois, “Qutadg‘u bilig” asari pedagogik tafakkur tarixida muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan nodir meros sifatida baholanadi





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig / Noshir va sharhlar muallifi Q. Karimov. — Toshkent: Fan, 1971. — 640 b.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig / Hozirgi o‘zbek tiliga tabdil qilgan va izohlar bilan nashrga tayyorlagan Q. Karimov. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. — 720 b.
3. Karimov, Q. Qutadg‘u bilig va turkiy axloqiy tafakkur. — Toshkent: Fan, 1990. — 210 b.
4. Кононов, А. Н. История изучения тюркских языков в России. — Ленинград: Наука, 1972. — 352 с.
5. Malov, S. E. Памятники древнетюркской письменности. — Москва–Ленинград: Изд-во АН СССР, 1951. — 451 с.
6. Bartold, V. V. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. — Москва: Наука, 1963. — 746 с.
7. Abdujabbarova, F. A. XI–XII asr turkiy manbalari leksikasining lingvomadaniy xususiyatlari // Filologiya masalalari. — Toshkent, 2021. — № 4. — B. 45–52.
8. Mahmudov, N. O‘zbek tilining tarixiy leksikologiyasi. — Toshkent: Universitet, 2009. — 240 b.

